

Rasmiy bayonot! Toshkent Botanika bog'i faoliyati 17-sentyabrga qadar to'xtatiladi!

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi Toshkent Botanika bog'ida 2020/2021-o'quv yilida oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish uchun test sinovlari o'tkazilishi munosabati bilan joriy yil 31-avgustdan 15-sentyabrga qadar tashrif buyuruvchilar uchun o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi haqida avval xabar qilgan edik.

Ma'lum sabablarga ko'ra imtihon kunlari qoldirilgan abituriyentlarga test sinovlari o'tkazish belgilanganligi sababli bog' faoliyati 17-sentyabrga qadar to'xtatilishini ma'lum qilamiz.

O'zR FA Axborot xizmati.